

INNOVATSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATINING AHAMYATI

Komiljonov Behruz Sanjarbek o'g'li

Millat Umidi universiteti BA-203 guruh talabasi

S. Salixov

**ILMIY RAHBAR; Vazilar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va Tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti, PHD
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17951646>**

Annototsiya: Ushbu maqolada innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosatining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda innovatsiyalar iqtisodiyotning muhim qismi bo'lib, u tadbirkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar va dasturlar tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Maqolada shu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion tadbirkorlik, davlat siyosati, rivojlantirish, iqtisodiyot, imkoniyatlar, qo'llab-quvvatlash.

Kirish: Hozirgi zamonda innovatsion tadbirkorlik iqtisodiyotda juda muhim o'rin egallaydi. Innovatsiya deganda yangi g'oya, texnologiya yoki mahsulotni yaratishni tushunishimiz mumkin. Tadqiqotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, mamlakatlar innovatsiyaga katta e'tibor qaratmasa, ular raqobatda ortda qolishi mumkin. Shu sababli davlat siyosati tadbirkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, imtiyozlar va turli dasturlar tadbirkorlarni rag'batlantiradi, ularning g'oyalarini amaliyotga tatbiq qilishga yordam beradi. Bu maqolada innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatini o'rni va innovatsion tadbirkorlikni iqtisodiy va ijtimoiy natijalari haqida so'z boradi.

Innovatsion tadbirkorlik tushunchasi va ahamiyati: Innovatsion tadbirkorlik deganda, odatda yangi g'oya, texnologiya yoki mahsulotni yaratish va uni amaliyotga tatbiq qilish tushuniladi. Bu oddiy biznesdan farqli ravishda, asosiy e'tibor yangilikka va uni foydali natijaga aylantirishga qaratiladi. Masalan, yangi dasturiy ta'minot yaratish, ilg'or texnologiya ishlab chiqarish yoki yangi xizmatlarni joriy etish innovatsion tadbirkorlikka kiradi. Bugungi kunda innovatsion tadbirkorlik juda muhim. Chunki u iqtisodiyotning rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Yangi g'oyalar iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi bu insonlar uchun daromad manbai bo'ladi va yangi ish o'rinlari jamiyatda ijtimoiy o'sishni oshiradi chunki odamlar ish bilan taminlansa jinoyatchilik va muammolar kamayadi va bu o'z navbatida mamlakatni raqobatbardosh qiladi. Shu bilan birga, innovatsion tadbirkorlik jamiyatga ham foyda keltiradi, chunki yangi mahsulotlar va xizmatlar odamlarning hayotini yaxshilaydi. Davlat ham innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda katta rol o'ynaydi. Masalan, u start uplar va yangi bizneslarni moliyaviy jihatdan rag'batlantiradi, imtiyozlar beradi va qulay sharoit yaratadi. Shu yo'l bilan tadbirkorlar o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq qilishi osonlashadi. Innovatsion tadbirkorlikning yana bir ahamiyati shuki, u ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishiga yordam beradi. Tadqiqotlar va yangi ishlanmalar amaliyotga tatbiq etilganda, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratiladi, bu esa iqtisodiyotga yangi imkoniyatlar ochadi. Shu sababli, innovatsion tadbirkorlik nafaqat biznes, balki butun jamiyat

va mamlakat rivoji uchun muhim hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor birgalikda ishlasa, innovatsion tadbirkorlik yanada samarali bo'ladi va iqtisodiy o'sish barqaror bo'ladi.

Innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosatini ro'li: Mening fikrimcha, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosati juda muhim. Chunki har qanday yangi g'oya yoki start upni faqat tadbirkor o'zi rivojlantira olmaydi. Davlat yordam bermasa, ko'p g'oyalar amalga oshmay qoladi. Masalan, start uplar uchun grantlar, imtiyozlar va boshqa moliyaviy yordam tadbirkorlar uchun katta qo'llab-quvvatlash bo'ladi. Menimcha, moliyaviy imkoniyat bo'lmasa, ko'pchilik yangi g'oyalarni boshlay olmaydi yoki tezroq to'xtatadi. Shuningdek, davlat siyosati tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratadi. Masalan, qonunlar oddiy va tushunarli bo'lishi kerak. Agar byurokratiya ko'p bo'lsa yoki ruxsatnomalarni olish qiyin bo'lsa, tadbirkorlar yangi ish boshlashdan qo'rqadi. Fikrimcha, davlat tomonidan qulay sharoit yaratilsa, ko'proq yoshlar innovatsion g'oyalar bilan shug'ullanishadi. Davlatning yana bir muhim roli — start up va ilmiy ishlanmalarni rag'batlantirish. Masalan, texnoparklar, innovatsion markazlar va start up inkubatorlar tashkil etilishi tadbirkorlar uchun katta yordam. Menimcha, bu joylarda ishlash orqali tadbirkorlar o'z g'oyalarni tajriba qilish, xatolarni tuzatish va yaxshilash imkoniga ega bo'ladi. Bu esa natijada yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratishga olib keladi. Shuni o'ylaymanki, davlat siyosati faqat moliyaviy yordam berish bilan cheklanmasligi kerak. U shuningdek, innovatsion tadbirkorlik uchun o'quv kurslar, seminarlar va treninglar tashkil qilishi kerak. Chunki ko'p yoshlar yangi texnologiyalarni bilmaydi va ularni qo'llay olmaydi. Agar davlat bu borada yordam bersa, tadbirkorlar o'z ishlarini tezroq rivojlantira oladi. Menimcha, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning yana bir foydasi shuki, u yangi ish o'rinlari yaratadi. Ko'proq ish o'rinlari yaratilsa migrantlar soni kamayadi va kambag'allik qisqaradi va bu iqtisodiyot rivojlanishiga katta yordam beradi. Davlat siyosati esa buni rag'batlantiradi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, davlat siyosati innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi. U moliyaviy yordam beradi, qulay muhit yaratadi, start uplarni rag'batlantiradi va yoshlarga imkoniyat beradi. Agar davlat bu yo'nalishda samarali ishlasa, mamlakat iqtisodiy jihatdan kuchayadi va raqobatbardosh bo'ladi.

Davlat tomonidan yaratilayotgan infratuzilma: Shaxsiy fikrim shuki, davlat tomonidan yaratilayotgan infratuzilma nafaqat tadbirkorlar, balki oddiy fuqarolar uchun ham juda muhimdir. Infratuzilma deganda ko'p narsalarni tushunish mumkin: bu nafaqat transport yoki internet tarmoqlari, balki ilmiy markazlar, texnoparklar va ishbilarmonlik zonalarini ham o'z ichiga oladi. Menimcha, davlat ushbu infratuzilmani rivojlantirish orqali jamiyat va iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo'shadi. Va albatta, infratuzilma rivojlangan joylarda tadbirkorlik tez rivojlanadi. Masalan, texnoparklar va startup markazlarida ish boshlagan tadbirkorlar o'z loyihalarini sinab ko'rishlari mumkin va bu jarayonda xatolarni tuzatish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shu yo'l bilan yangi mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'ladi. Shuningdek, bunday joylar yoshlarni innovatsion g'oyalar yaratishga undaydi, chunki ular qulay sharoit va maslahat oladigan mutaxassislarni topadi. Menimcha, bu davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, infratuzilma odamlarning hayotini qulaylashtiradi. Yaxshi yo'llar, transport tizimi, suv va elektr tarmoqlari bo'lmasa, odamlar va tadbirkorlar qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, mahsulotni bir shahardan boshqa shaharga yetkazish uzoq vaqt oladi va narxlar oshadi. Shu sababli davlatning transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishi juda muhim. Bu ishlar tez va samarali amalga oshirilsa, iqtisodiyot yanada kuchayadi va yangi

ish o'rinlari yaratiladi. Davlat infratuzilmani rivojlantirish orqali yoshlar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, internet va raqamli tarmoqlar rivojlanganida, odamlar onlayn biznes boshlashlari mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan yaratilgan ilmiy va texnologik infratuzilma tadbirkorlar uchun yangi g'oyalarni sinash va rivojlantirish imkonini beradi. Shaxsiy tajribam shuki, bunday sharoit bo'lmasa, ko'pchilik odamlar yangi loyihalarni boshlashdan qo'rqadi yoki to'xtatadi. Davlat infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Menimcha, ish o'rinlari ko'payadi, odamlar ishlaydi va oilalar boqiladi. Shu yo'l bilan jamiyatda ijtimoiy barqarorlik ham kuchayadi. Masalan, ishlab chiqarish zonalarini va biznes markazlari ko'proq ishchilarni jalb qiladi va bu o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. Davlat infratuzilmani rivojlantirishda faqat moliyaviy yordam berish bilan cheklanmasligi kerak. U shuningdek, qulay muhit yaratishi, qonunlarni soddalashtirishi va tadbirkorlarni rag'batlantirishi zarur. Shu tarzda infratuzilma nafaqat iqtisodiyot, balki jamiyat rivojiga ham hissa qo'shadi. Menimcha, agar davlat infratuzilmani samarali rivojlantirsa, mamlakat tez rivojlanadi, yoshlar ish bilan ta'minlanadi va yangi g'oyalar amaliyotga tatbiq qilinadi. Shu sababli, davlat tomonidan yaratilayotgan infratuzilma innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy o'sish uchun muhim omil hisoblanadi. U orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi, tadbirkorlar o'z g'oyalarni amalga oshiradi, yoshlar rag'batlanadi va jamiyat rivojlantiriladi. Shu bilan birga, davlatning infratuzilmaga e'tibori iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni rivojlantirish: Har bir davlatning taraqqiyoti, avvalo, uning kadrlar salohiyati bilan belgilanadi. Zamonaviy davrda iqtisodiyot, texnologiya, ta'lim va fan sohalaridagi raqobat kuchaygan bir paytda, malakali mutaxassislarni yetishtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni rivojlantirish bugungi kunda har bir sohaning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Kadrlar tayyorlashning asosiy maqsadi — o'z kasbini chuqur biladigan, mas'uliyatli, yangilikka intiluvchan mutaxassislarni shakllantirishdir. Buning uchun ta'lim tizimi zamon talablariga mos bo'lishi kerak. Mamlakatda so'nggi yillarda ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi o'quv dasturlari, raqamli ta'lim platformalari joriy etilmoqda, oliy ta'lim muassasalarida amaliyotga yo'naltirilgan o'quv tizimi kengaymoqda. Yosh avlodni tayyorlashda o'qituvchi va ustozlarning o'rne beqiyosdir. Ular bilim berish bilan birga, o'quvchilarda kasbiy mas'uliyat, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarini ham shakllantiradi. Shu sababli pedagoglarning malakasini oshirish, ularni yangi metodikalarga o'rgatish doimiy e'tiborda bo'lishi lozim. Malaka oshirish kurslari, xorijda tajriba almashish dasturlari o'qituvchilarning bilimini boyitadi va o'quv jarayonini yanada samarali qiladi. Ilmiy salohiyatni rivojlantirish esa kadrlar tayyorlash jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilm-fansiz hech bir soha to'liq rivojlana olmaydi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlashga katta ahamiyat berilmoqda. Doktorantura tizimi, ilmiy grantlar, innovatsion markazlar yosh tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ilmiy salohiyat faqat ilmiy darajalar bilan o'lchanmaydi. U insonning yangilik yaratish, muammoni tahlil qilish va amaliy yechim topish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida tashkil etilayotgan startap loyihalar, innovatsion laboratoriyalar, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi bunga yaqqol misoldir. Bunday tashabbuslar yoshlarni mustaqil fikrlashga, o'z g'oyasini hayotga tatbiq etishga o'rgatadi. Kadrlar tayyorlashda xalqaro hamkorlikning o'rne ham katta. Ko'plab talabalar xorijiy

universitetlarda tahsil olib, zamonaviy ta'lim tizimi va ilg'or tajribalar bilan tanishmoqda. Ular qaytib kelgach, o'z bilimlarini mahalliy ta'lim jarayoniga qo'llab, milliy tizimni yangicha yondashuvlar bilan boyitmoqda. Shuningdek, xorijiy mutaxassislarni mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalariga jalb etish orqali o'zaro tajriba almashinuvi yo'lga qo'yilmoqda. Ilmiy salohiyatning o'sishida moddiy-texnik baza ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy laboratoriyalar, elektron kutubxonalar, raqamli platformalar tadqiqotchilarga qulay sharoit yaratadi. Yangi texnologiyalar yordamida ilmiy natijalarni tezkor tahlil qilish, ma'lumot almashish va hamkorlikda ishlash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa ilmiy jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda ishlab chiqarish bilan ilm-fan o'rtasidagi hamkorlik tobora kuchaymoqda. Korxonalar va ilmiy markazlar o'zaro hamkorlikda yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazmoqda, muammolarni birgalikda hal etmoqda. Natijada ilmiy ishlanmalar amaliy hayotga tatbiq etilmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kadrlar tayyorlash tizimi faqat ta'lim muassasalarining vazifasi emas. Unda davlat, xususiy sektor, jamiyat va shaxsning o'zi ham faol ishtirok etishi zarur. Inson o'z ustida ishlashni, doimiy o'rganishni, yangi bilimlarni o'zlashtirishni odatga aylantirsa, u har qanday sohada muvaffaqiyatga erishadi. Shu tarzda umumiy ilmiy salohiyat va kasbiy malaka darajasi yildan-yilga oshib boradi. Kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni rivojlantirish mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi. Bilimli, mas'uliyatli va fidoyi mutaxassislar ko'paygani sayin, har bir soha yuksaladi. Ilm-fan va ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini ochish esa kelajak avlodga mustahkam poydevor yaratadi.

Innovatsion siyosatning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari: Zamonaviy dunyoda har bir davlatning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion siyosatning samaradorligiga bog'liq. Innovatsiya – bu yangilik yaratish, mavjud jarayonlarni takomillashtirish va natijada iqtisodiyot hamda jamiyat hayotiga ijobiy o'zgarishlar kiritish demakdir. Innovatsion siyosat esa davlat tomonidan ilmiy-texnik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan strategik yo'nalishdir. Bunday siyosatning natijalari nafaqat iqtisodiy o'sishda, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yaqqol seziladi. Avvalo, innovatsion siyosatning iqtisodiy natijalari haqida to'xtalish lozim. Eng asosiy natija — bu mamlakat iqtisodiyotining samaradorligini oshirishdir. Yangi texnologiyalar ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etilganda, resurslardan foydalanish yanada tejamkor bo'ladi, mahsulot sifati yaxshilanadi va mehnat unumdorligi ortadi. Bu esa korxonalar foydasining ko'payishiga, eksport salohiyatining o'sishiga va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib keladi. Masalan, sanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda. Natijada inson omiliga bog'liqlik kamayib, xatoliklar soni qisqaradi, ishlab chiqarish tezligi ortadi. Shu bilan birga, energiya tejamkor texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, bu esa uzoq muddatda iqtisodiy foyda bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi. Innovatsion siyosat kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga ham katta turtki beradi. Yangi g'oyalarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratilsa, startup loyihalar soni ortadi, yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Natijada iqtisodiy faollik kuchayadi, aholi bandligi oshadi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar orasida tashabbuskorlik va ijodkorlikni rag'batlantiradi. Innovatsiyalar investitsion jozibadorlikni ham oshiradi. Chet el investorlarini jalb etishda eng muhim omillardan biri – bu mamlakatda barqaror innovatsion siyosat yuritilayotganidir. Ilmiy salohiyat, intellektual mulkni himoya qilish tizimi, zamonaviy

infratuzilma va soliq imtiyozlari xorijiy sarmoyadorlar uchun ishonchli muhit yaratadi. Bu esa yangi korxonalar, texnoparklar, ilmiy markazlar tashkil etilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, innovatsion siyosat iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartiradi. An'anaviy ishlab chiqarish sohalaridan ko'ra, yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalar ulushi ortadi. Masalan, axborot texnologiyalari, biotexnologiya, energiya muqobilligi kabi yo'nalishlar iqtisodiyotning yangi drayveriga aylanadi. Bu esa mamlakatning global bozor tizimida mustahkam o'rin egallashiga imkon yaratadi. Innovatsion siyosatning iqtisodiy samarasini ta'lim va ilm-fan bilan chambarchas bog'lash zarur. Chunki har qanday innovatsiya bilim va ilmiy izlanishlar natijasida paydo bo'ladi. Shu sababli ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, oliy o'quv yurtlarida amaliy tadqiqotlar olib borish, talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Natijada ilm-fan ishlab chiqarish bilan integratsiyalashib, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratishga xizmat qiladi. Innovatsion siyosatning ijtimoiy natijalari ham shunchalik muhimdir. Avvalo, bu siyosat aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Yangi texnologiyalar, raqamli xizmatlar, sog'liqni saqlashdagi innovatsion yechimlar odamlarning hayotini yengillashtiradi. Masalan, tibbiyotda sun'iy intellekt asosidagi diagnostika tizimlari kasalliklarni erta aniqlashga yordam beradi, bu esa aholining sog'lig'ini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'lim tizimidagi innovatsiyalar ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, raqamli kutubxonalar yordamida chekka hududlardagi yoshlar ham sifatli ta'lim olish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa jamiyatda bilimga asoslangan taraqqiyot uchun sharoit yaratadi. Innovatsion siyosat ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholining daromadlarining oshishi, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi natijasida jamiyatda ijobiy kayfiyat kuchayadi. Shu bilan birga, innovatsion jarayonlarda ishtirok etayotgan yoshlar o'zini jamiyatning muhim qismi sifatida his etadi. Bu esa ijtimoiy faollik, mas'uliyat va vatanparvarlik ruhini kuchaytiradi. Ijtimoiy sohada innovatsion siyosatning yana bir muhim natijasi — bu boshqaruv tizimining takomillashuvidir. Elektron hukumat, onlayn xizmatlar, raqamli ma'lumotlar bazasi davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlaydi, byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va aholiga qulaylik yaratadi. Bu jarayonlar korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositasiga ham aylanmoqda. Innovatsion siyosatning ijtimoiy ta'siri madaniy hayotda ham namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar yordamida madaniy merosni saqlash, san'at asarlarini raqamlashtirish, onlayn ko'rgazmalar tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa nafaqat milliy qadriyatlarni asrash, balki ularni jahon miqyosida targ'ib qilishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ekologiya sohasida innovatsion siyosatning ahamiyati beqiyosdir. Qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ijtimoiy ongni o'zgartiradi. Aholi orasida tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabat shakllanadi, bu esa uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Innovatsion siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Faqat shu yo'l bilan innovatsiyalar keng qamrovli natijalar beradi. Davlat innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan qonuniy asos yaratadi, xususiy sektor esa investitsiyalar kiritadi, fuqarolar esa yangi texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda faol ishtirok etadi. Natijada, innovatsion siyosatning iqtisodiy va ijtimoiy samaralari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Iqtisodiy o'sish ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi, ijtimoiy barqarorlik esa

innovatsion rivojlanish uchun qulay muhit yaratadi. Bu ikki jarayon bir-birini to'ldiradi va mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. D.Qosimov Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Toshkent-2019
2. A.G'aniyev Tadbirkorlik asoslari Toshkent-2017
3. T.Qudratov Korxonalarda tadbirkorlik faoliyati Toshkent-2016
4. S.Salayev Tadbirkorlik asoslari Toshkent-2016
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <<Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida>> 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son Farmoni, <<O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida>> 2020 yil 26 martdagi PQ-4653-son, <<Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida>> 2020 yil 13 oktabrdagi PQ-4862-son qarorlari, <<O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida>> 2021 yil 17 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kabi me'yoriy hujjatlar shular jumlasidantir.